



ELEKTRON HUKUMATNI ME'YORIY-HUQUQIY TA'MINLASH

Raxmonov Asiljon Rahamt o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti

2-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17551033>

ARTICLE INFO

Received: 1st November 2025

Accepted: 2nd November 2025

Published: 6th November 2025

KEYWORDS

elektron hukumat, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli davlat, me'yoriy-huquqiy asos, axborot xavfsizligi, raqamli islohot, davlat xizmatlari, xalqaro tajriba, O'zbekiston qonunchiligi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida elektron hukumat tizimini me'yoriy-huquqiy jihatdan ta'minlash masalalarida yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklar va ularni oldini olish va yechim bo'lishi mumkin bo'lgan takliflar yoritilgan. Elektron hukumatni tashkil etuvchi asosiy qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari tahlil qilingan. Shuningdek, Estoniya, Janubiy Koreya, AQSh va Rossiya tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazilib, ularning O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan ijobiy jihatlari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot ishida normativ-huquqiy tahlil, tizimli va empirik usullar qo'llanilgan holda muammolar o'rganilgan. Maqolada amaldagi qonunchilikdagi kamchiliklar, masalan, huquqiy me'yorlarning takrorlanishi, yuklatilgan vakolatlarning noaniqligi yoki hech kimga yuklatilmaganligi hamda kiberxavfsizlikni tartibga solishdagi bo'shliqlar, o'zgartirish zarur bo'lgan holatlar aniqlangan. Yakunda elektron hukumatni takomillashtirish uchun huquqiy baza uyg'unligini kuchaytirish, sohada xalqaro qoidalar asosida qonunvhilikni tartiblash, kiberxavfsizlikni kuchaytirish va electron hukumat sohasida xalqaro standartlarni joriy etish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kirish. XXI asrda davlat boshqaruvida, qolaversa, har bir sohada raqamli texnologiyalarni joriy etish davlatning samaradorligini oshirish, jamiyat bilan bog'liqlikni kuchaytirish, fuqarolarga tez, shaffof va sifatli xizmat ko'rsatishning muhim omiliga aylandi. Shu jarayonning asosi sifatida elektron hukumat (e-gov) tizimi paydo bo'ldi. Elektron hukumat davlat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro huquqiy, ijtimoiy, xizmat ko'rsatish munosabatlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yordamida tashkil etishga qaratilgan bo'lib, unda davlat organlari faoliyatining ochiqligi, hisobdorligi va tezkorligini ta'minlashga qaratilgan. O'zbekistonda so'nggi yillarda elektron hukumatni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonun (2015-yil 9-dekabr) bu borada huquqiy asos yaratgan bo'lsa, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi esa raqamli iqtisodiyot, elektron xizmatlar va davlat boshqaruvining zamonaviy modelini shakllantirishni maqsad qilgan. Hozirgi zamonda hayotni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, O'zbekiston jahon reytinglarida hali yuqori darajaga erisha olgani yo'q. Ammo bugun AKT bilan ishlash har bir sohada rivojlanishni

tezlashtira oladigan omil ekanligini pandemiya davrida har bir mamlakat tushunib yetdi. Shu asnoda ushbu sohada sezilarli ishalar amalga oshirildi va O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida xizmatlar soni 770dan (2025-yil oktabr) ortiqni tashkil qilayotganini ko'rishimiz mumkin. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, mavjud me'yoriy-huquqiy baza yetarlicha mukammal emas. Ayrim qonun hujjatlari o'zaro uyg'unlashmagan, mas'ul organlarning vakolatlari to'liq aniqlanmagan, elektron xizmatlar sifati va xavfsizligi bo'yicha yagona standartlar tizimi to'liq ishlamayapti. Shu sababli elektron hukumatni rivojlantirishda xalqaro tajriba o'rganish, o'zimizda mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish, yangi yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni joriy etish zarur.

Materiallar va usullar.

Normativ-huquqiy tahlil — O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va xalqaro hujjatlar o'rganildi; Empirik yondashuv — davlat xizmatlari portallari (my.gov.uz, data.gov.uz) faoliyati va amaliy muammolari tahlil qilindi; Tizimli yondashuv — elektron hukumatni shakllantiruvchi elementlar (huquqiy, texnik, tashkiliy va ijtimoiy) o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijasida elektron hukumatni me'yoriy-huquqiy jihatdan ta'minlashda mavjud bo'lgan kamchiliklar, ular uchun tavsiyalar xalqaro tajribaning afzalliklari va O'zbekiston uchun takliflar ishlab chiqildi. Natijalar 1. O'zbekiston Respublikasida elektron hukumatni huquqiy asoslari quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi:

“Elektron hukumat to'g'risida”gi Qonun (2015-yil 9-dekabr);

“Axborotlashtirish to'g'risida”gi Qonun (2003-yil);

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni (2020-yil 5-oktabr);

“Davlat organlarida axborot tizimlarini joriy etish va ularni integratsiyalash tartibi to'g'risidagi nizom”;

“Elektron raqamli imzo to'g'risida”gi Qonun (2003-yil 11-dekabr).

Mazkur normativ hujjatlar elektron hukumatning tashkiliy-huquqiy asosini belgilab bergan bo'lsa-da, ularning amaliy ijrosida va kelgusidagi rivojlanishida muayyan kamchiliklar kuzatilmoqda. 2. Hozirda mavjud amaldagi qonunchilikdagi muammolar: 1. Huquqiy bo'linishlar va normativ takrorlanishlar. Turli hujjatlarda elektron xizmatlar ta'riflari bir-biridan farq qiladi. Bu esa amaliyotda aholiga qiyinchilik yaratishi bilan birgalikda, turli talqinlarga sabab bo'ladi. 2. Qonunchilik normalarida ma'lumot xavfsizligi masalalari (shaxsiy va xizmat ko'rsatishdagi ma'lumotlar) yetarli darajada tartibga solinmagan. Kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tizimi va ularning javobgarlik mexanizmlari zaif, maxsus javobgar tashkilot yo'q. 3. Vakolatlarning takrorlanishi. Vazirlar Mahkamasi, Davlat xizmatlari agentligi va boshqa idoralar vakolatlari o'zaro chatishtirilgan. 4. Aholiga ko'rsatilayotgan elektron xizmatlar sifati ustidan hukumat nazorat mexanizmi zaif. Ushbu xizmatlarda aholining fikr-mulohazalarini tahlil qilish va xizmatlar sifatini baholash bo'yicha yagona tizim yo'q.

Natijalar: Estoniya tajribasi. Estoniya elektron hukumat sohasida juda kata yutuqlarga erishgan davlat hisoblanadi. “X-Road” integratsion platformasi barcha davlat organlarini yagona tarmoqqa bog'laydi, xuddi O'zbekistonning my.gov.uz sayti kabi. Bu platformaning ustunlik jihati shundaki, platformada nafaqat davlat, balki xususiy sektordagi ma'lumotlar bazalarini xavfsiz holda uyg'unlashtira olgan. Albatta, ushbu amaliyot o'zining qonuniy asosiga ega. Estoniyada “data exchange layer of information systems” (Ma'lumot tizimlari almashinuvi qatlamini tartibga soluvchi) maxsus nizom (2004-yining 1-yanvarida kuchga

kirgan) tartibga soladi. Ushbu amaliyot fuqarolarga “bir marta ma’lumot berish” (once-only) tamoyilini ta’minlab berishi bilan birga, ma’lumotlar almashinuvidagi barcha tranzaksiyalar log qilinishi va ma’lumotlar almashinuvining xavfsiz bo’lishi bilan birga ochiq va shaffof bo’lishini ta’minlab beradi. Shaxsiy ma’lumotlar himoyasi “Data Protection Inspectorate” tomonidan qat’iy nazorat qilinadi.

Janubiy Koreya tajribasi. “E-Government Act” (2001-yil) orqali elektron xizmatlar majburiy tarzda yagona huquqiy portalda ko’rsatiladi. Davlat xizmatlari portalida esa www.gov.kr hisoblanadi. Fuqarolarning barcha hujjat almashinuvi onlayn shaklda xavfsiz amalga oshiriladi. Janubiy Koreyada elektron hukumat sohasini tartibga soluvchi alohida qonun mavjud bo’lib, bu yuqorida ta’kidlaganimizdek E-Government Act (Act on the Promotion of the Provision and use of Public data and the Advancement of Electronic Government) bo’lib unda elektron hukumat uchun zarur barcha huquqiy asoslar qamrab olingan. Qonunning o’ziga xos shakli shundaki unda elektron xizmat mavjud bo’lsa, demak aholi undan foydalanishi shart ekanligi aniq belgilangan, ya’ni tanlash imkonini mavjud emas.

AQSh tajribasi. “E-Government Act of 2002” (An Act to enhance the management and promotion of electronic government services and processes by establishing a Federal Chief Information Officer within the Office of Management and Budget, and by establishing a broad framework of measures that require using Internet-based information technology to enhance citizen access to Government information and services) 2002-yil 17-dekabrda qabul qilingan, qonun raqami: Public Law 107-347 Manba: <https://www.congress.gov/bills/107/congress/house-bill/2458/text> Ushbu qonunning o’ziga xos shakli shundaki, qonunda AQSH OMB (Office of Management and Budget- Boshqaruv va Budjet idorasi) tarkibida Federal Chief information officer (Federal bosh axborot xodimi) lavozimi joriy etilgan bo’lib, uning vazifasi elektron hukumat strategiyasini boshqaradi, turli idoralar o’rtasida ma’lumot va axborot almashinuvi, shuningdek texnologik standartlarni nazorat qiladi. Bu shaxs faqat shu masalalar bilan shug’ullanadi va keng vakolat bilan ta’minlanishi qolgan idoralar bilan shu sohada uning vakolatlari kengligi uchun bema’lul hisob so’rash imkoniyatini ham beradi. Shuningdek, ushbu shaxsga berilgan vakolatga qarab majburiyatlar ham yuklatilgan va aynan shu shaxs elektron hukumat bo’yicha asosiy javob beruvchi shaxs hisoblanadi. Bu siyosat o’z navbatida markazlashtirilgan axborot siyosati yaratish imkonini beradi. Qonunning yana bir o’ziga xos jihati – har bir yangi elektron xizmat yoki elektron tizim ishga tushirilishidan oldin, fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlariga ta’siri (Privacy Impact) baholanishi va bu baholash natijalari fuqarolarga e’lon qilinishi orqali amalga oshirilishi shart deyiladi. Bu yerda har bir xizmat shaxsiy ma’lumotlarga zarar keltirmagan holda aholini fikri asosida yo’lga qo’yiladi

Rossiya tajribasi. “Gosuslugi.ru” portalida orqali 70 mln dan ortiq foydalanuvchi davlat xizmatlaridan onlayn foydalanadi. Qonunchilik xuddi O’zbekistondagidekm yagona qonun asosida emas balki, bir qancha qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Masalan, “Rossiya Federatsiyasining axborotlashtirish to’g’risida”gi Federal qonun (№149-FZ, 2006-yil 27-iyul) – bu qonun davlat axborot resurslarini yaratish, saqlash, uzatish va ulardan foydalanishning umumiy qoidalarini belgilaydi. “Davlat xizmatlarini ko’rsatish to’g’risida”gi Federal qonun (№210-FZ, 2010-yil 27-iyul) – bu qonun elektron shaklda davlat xizmatlarini taqdim etishning asosiy huquqiy mexanizmini yaratdi. 5-moddasi fuqarolarning davlat xizmatlariga yagona portallar (masalan, gosuslugi.ru) orqali murojaat qilish huquqini kafolatlaydi. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Farmoni “Axborot jamiyatini rivojlantirish strategiyasi to’g’risida” (№203, 2017-yil 9-may) — ushbu farmon elektron hukumatni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini belgilaydi. 2-bo’limda “raqamli suverenitet” va “axborot xavfsizligi” masalalariga alohida urg’u berilgan. Elektron hukumat infratuzilmasi Rossiyada elektron hukumatni texnik jihatdan ta’minlaydigan asosiy elementlar quyidagilardan iborat: 1. Yagona davlat xizmatlari portalida (www.gosuslugi.ru) – barcha davlat xizmatlarini raqamli tarzda olish

imkonini beradi. 2024-yilda bu tizim orqali 300 milliondan ortiq murojaatlar qayta ishlangan. Huquqshunos V. V. Ivanov (Rossiya Davlat xizmatlari akademiyasi professori) o'z tadqiqotida (Ivanov, Gosudarstvennoe upravlenie i pravo, 2022) shunday deydi: "Rossiya elektron hukumatining huquqiy modeli texnik jihatdan mukammal, ammo uning fuqarolik ishonchini mustahkamlash uchun axborot oshkoraligini kuchaytirish zarur."

O'zbekiston qonunchiligidagi kamchiliklar: O'zbekiston qonunchiligi hali sistemalashgan, integratsiyalashgan va fuqaroga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin, lekin bu huquqiy asos darajasiga to'liq yetmagan. O'zbekistonda elektron hukumat bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlar bir-biridan ajratilgan, yagona tizimga keltirilmagan. Qonunlar bir-biri bilan integratsiyalashmagan, o'zaro havolalar yetarli emas. Janubiy Koreyada 2001-yilda qabul qilingan "e-Government Act" barcha tegishli qonunlarni yagona huquqiy tizimga birlashtirgan, bunda identifikatsiya, axborot xavfsizligi, xizmat ko'rsatish va shaffoflik bir platformada uyg'unlashgan.

Elektron xizmatlarning majburiyligi aniq belgilanmagan Rossiyada 210-FZ qonunining 5-moddasiga binoan, davlat xizmatlarini elektron shaklda taqdim etish majburiy sanaladi. O'zbekistonda esa davlat idoralari elektron shaklni tanlashda ixtiyoriylik asosida ish yuritadi. Fuqarolarga tanlash huquqi berilgan, bu elektron hukumat sohasini dunyo reytingida yuqori o'rinlarga chiqishi uchun salbiy ta'sir qilishi aniq. Bu esa ayrim sohalarida raqamli xizmatlar joriy etilmasligiga olib keladi. Huquqiy misol: 2023-yil 25-apreldagi "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" to'g'risidagi nizomga ko'ra (Vazirlar Mahkamasi qarori), barcha idoralar portal orqali xizmat ko'rsatishi lozim. Ammo bu normativ qaror, qonun darajasida emas, shu sababli majburiy kuch yetarli emas. Ya'ni Oliy Majlis tominidan qabul qilinmagan. Qonunosti hujjati ko'rinishida bo'lib turibdi.

Axborot xavfsizligi masalasida mustaqil qonuniy asos yo'q. Hozirda axborot xavfsizligi "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun doirasida umumiy tarzda yoritilgan, ammo mustaqil "Axborot xavfsizligi to'g'risida" qonun hali qabul qilinmagan. Xorijiy tajriba: AQShda bu masalani Federal Information Security Management Act (FISMA, 2002) tartibga soladi. Rossiyada esa bu vazifani FSB va Roskomnadzor nazorat qiladi, qonuniy mexanizmlar bilan. O'zbekistonda esa bu yo'nalishda vakolatli organing aniq huquqiy maqomi belgilanmagan. O'zbekistonda aniq bir tashkilot belgilanmagan, umumiy tarzda Vazirlar Mahkamasi yoki mas'ul etib Raqamli texnologiyalar vazirligiga yuklatilgan. Aniq mexanizm asosida nazorat qilish Qonunchilikda mavjud emas.

Shaxsiy ma'lumotlar himoyasining zaifligi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun (2019-yil) fuqarolarning ma'lumotlarini himoya qilishni ko'zda tutadi. Ammo bu qonun: elektron hukumat tizimlaridagi ma'lumotlarni qanday himoya qilishni aniq belgilamaydi, xalqaro standart (masalan, GDPR — Yevropa Ittifoqining 2018-yilgi umumiy ma'lumot himoyasi reglamenti) talablariga to'liq mos emas. Natijada: fuqarolarning davlat portallari orqali topshirgan ma'lumotlari (masalan, pasport, INN, soliq ma'lumotlari) uchun mustaqil nazorat organi mavjud emas. To'g'ri soliq masalalari bo'yicha Soliq qo'mitasi javobgar bo'lishi mumkin. Ammo xavfsizlik va elektron xizmat ko'rsatishga javob berishi aslida noto'g'ri.

Raqamli identifikatsiya tizimining qonuniy maqomi hali yetarli emas. Bu bo'yicha ham kamchiliklar yetarli. Yagona identifikatsiya tizimi ([ID.GOV.UZ](https://id.gov.uz)) amalda ishlaydi, lekin uning huquqiy maqomi "normativ qaror" darajasida. AQSh va Koreyada esa identifikatsiya jarayoni qonun bilan mustahkamlangan: AQShda — OMB Circular A-130, Koreyada — Digital Signature Act (2001) orqali fuqarolarning raqamli imzolari to'liq huquqiy kuchga ega.

Ochiq ma'lumotlar (open data) qonunchiligi yetarli emas Davlat idoralarining ochiqligi "Axborot erkinligi to'g'risida"gi Qonun (2002-yil) orqali nazorat qilinadi. Ammo ochiq ma'lumotlar (data.gov.us yoki data.go.kr kabi) portallar faoliyatini belgilovchi maxsus qonun

yoki reglament yo'q. Rossiya va Koreyada esa "Ochiq davlat ma'lumotlari to'g'risida"gi qonunlar orqali har bir idoraning ma'lumotni e'lon qilish majburiyati qat'iy tartibga solingan.

Tashkiliy-huquqiy muammolar O'zbekistonda elektron hukumatni boshqaruvchi bir nechta idoralar faoliyat yuritadi: Raqamli texnologiyalar vazirligi, Axborot xavfsizligi markazi, Yagona interaktiv davlat xizmatlari markazi. Ammo ularning o'zaro vakolatlari aniq ajratilmagan. Bu esa mas'uliyatni bo'lishish va hisobdorlikning pasayishiga sabab bo'lmoqda. AQShda bu rolni Office of Management and Budget (OMB) bajaradi, u butun federatsiya miqyosida yagona siyosat yuritadi.

Amaliy oqibatlar. Davlat xizmatlarining 2024-yilda faqat 60–65% qismigina elektron shaklda amalga oshirilgan. Ayrim xizmatlarda fuqarolar hujjatlarni qog'oz shaklida topshirishga majbur bo'layotgan holatlar mavjud. Vaholanki ushbu xizmatlar natijasida elektron hujjat olish imkoni yaratilgan bo'lsa ham. Xizmatlarning yagona platformada emasligi sababli takroriy ma'lumot kiritish holatlari kuzatiladi. Ammo bu masala bo'yicha amaliy harakatlar juda faol. Hatto hozirda my.gov.uz saytida aniq qancha xizmat mavjudligini aytish qiyin, kundan-kunga yangi xizmatlar qo'shilib bormoqda. Sinov tariqasida amalga oshirilayotgan xizmatlar ham juda ko'p. Shunga qaramasdan elektron hukumat sohasida muammolar yertarli.

Takliflar. O'zbekistonda elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha keng takliflar 1. Elektron hukumat sohasini huquqiy jihatdan tizimlashtirish. Buning uchun avvalo, "Elektron hukumat kodeksi"ni qabul qilish zarur. Bugungi kunda elektron hukumatga oid qonunlar tarqoq holda mavjud (masalan, "Elektron hukumat to'g'risida", "Axborotlashtirish to'g'risida", "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" va boshqalar). Ularni yagona "Elektron hukumat kodeksi"ga birlashtirish kerak. Kodeks quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim: elektron davlat xizmatlarining turlari, shakllari va ularni ko'rsatish majburiyati; davlat idoralari o'rtasida axborot almashishning yagona huquqiy mexanizmi; elektron identifikatsiya, autentifikatsiya va elektron imzo tizimining maqomi; fuqarolarning raqamli huquqlari va ularni himoya qilish mexanizmlari; raqamli xavfsizlik – bu uchun aniq bir tashkilotning mas'ulligi, maxfiylik va javobgarlik tartibi. Janubiy Koreyada 2001-yildagi "e-Government Act" ana shunday yagona kodeks vazifasini bajaradi - unda elektron xizmatlardan tortib, davlat idoralari o'rtasidagi integratsiyagacha hammasi yuridik darajada tartibga solingan. Yagona huquqiy tizim –tartibli va ishonchli elektron xizmatlar.

2. Davlat xizmatlarini elektron shaklda ko'rsatishni majburiy qilish. Qonun darajasida majburiylik belgilanishi zarur. Hozirgi holatda elektron shaklda xizmat ko'rsatish ba'zan idoralarning ixtiyoriga qoldirilgan. Bu esa raqamlashtirish jarayonini sekinlashtiradi. Ba'zi bir xizmatlar elektron shaklda bo'lishi qaramay aholi ham tashkilotlarga an'anaviy usulda borib murojaat qilyapti. Davlat xizmatlari elektron shaklda mavjud bo'lsa uni an'anaviy usulini tugatish va qonunda aholi uchun ham faqat elektron xizmatlardan foydalanish majburiyatini belgilash zarur. Barcha tashkilotlarga tezlik bilan barcha xizmatlarni onlayn ko'rinishda ko'rsatish uchun xizmatlarni elektron ko'rinishini taqdim etishi zarurligini belgilash va bu marraga erishilgach, "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonunga "barcha davlat xizmatlari elektron shaklda taqdim etilishi shart" degan qo'shimcha kiritish kerak. Shuningdek, elektron shaklni joriy qilmagan tashkilot rahbarlari uchun intizomiy yoki ma'muriy javobgarlik belgilanishi lozim. AQShda 2002-yilgi E-Government Actning 4-bo'limi federal agentliklarga har bir xizmatni onlayn shaklda taqdim etishni majburiy deb belgilaydi.

3. Axborot xavfsizligini mustahkamlash "Axborot xavfsizligi to'g'risida" mustaqil qonun O'zbekistonda axborot xavfsizligi masalasi bir nechta hujjatlar orqali tartibga solinadi, lekin yagona qonun mavjud emas. Shu sababli, xalqaro tajribaga mos mustaqil qonun qabul qilish zarur. Qonun quyidagi yo'nalishlarni qamrab olishi kerak: kiberxavfsizlik infratuzilmasini yaratish (CERT, SOC markazlari faoliyatini qonuniylashtirish); shaxsiy ma'lumotlar bazalarini himoya qilishning minimal talablarini belgilash; davlat idoralari va xususiy sektorda

ma'lumotlar bilan ishlash standartlari (ISO/IEC 27001)ni majburiy joriy etish; axborot xavfsizligi buzilishi uchun jinoiy va ma'muriy javobgarlikni kuchaytirish. Rossiyada axborot xavfsizligi "149-FZ" qonuni bilan tartibga solingan va uni Federal Xavfsizlik Xizmati (FSB) hamda Roskomnadzor nazorat qiladi. O'zbekistonda ham shunga o'xshash ikki darajali tizim yaratish mumkin.

4. Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishni kuchaytirish. Qonunni xalqaro standartlarga moslashtirish 2019-yilda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun milliy huquq tizimida muhim qadam bo'ldi, lekin u Yevropa Ittifoqining GDPR (2018) reglamentiga moslashtirilmagan. Takliflar: shaxsiy ma'lumotlarni yig'ishdan oldin rozilikni elektron shaklda tasdiqlash mexanizmini joriy etish; fuqaroga o'z ma'lumotini ko'rish, o'zgartirish yoki o'chirish huquqini kafolatlash; ma'lumotlar bilan noqonuniy ishlov bergan idoralar uchun katta miqdordagi jarimalar belgilash kabi talablar. Bu aholining elektron xizmatlarga ishonchini ham oshiradi.

5. Ma'lumki, xorijiy davlatlarga chiqilganda mahalliy mobil aloqadan foydalanish imkonsiz, tashrif buyurilgan mamlakatning aloqalaridan foydalanamiz. Bunda asosiy elektron xizmatlar ko'rsatuvchi my.gov.uz saytiga ro'yxatdan o'tish imkonsiz. Vaholanki, hali ushbu xizmatlardan hali umuman foydalanmagan fuqarolar juda ko'p va ular chet elda turib elektron xizmatlardan foydalanishi uchun yetarli sharoit ta'minlanmagan. Shuning uchun, bu borada milliy tizimga qo'shimcha ro'yxatdan o'tishning yana bir variantini yaratish zarur. Masalan, Shvetsiyada Freja eID (Shvetsiya + xalqaro foydalanuvchilar) dasturi mavjud. Bu dastur Shvetsiyada va boshqa joylarda xalqaro foydalanuvchilar uchun elektron identifikatsiya imkonini beradi - "Shvetsiyada shaxsiy identifikatsiya raqami bo'lmagan foydalanuvchilarga ham e-ID" berilishi mumkin. Telefon raqami emas, balki biometrik pasport skani, selfie va NFC orqali identifikatsiya qilinadi. Shu tarzda, telefon raqami majburiy bo'lmagan hollarda ham identifikatsiya tizimi ishlaydi. Bu tajribalar asosida fuqarolar - chet elda bo'lgan holda, telefon raqamisiz ro'yxatdan o'tish uchun telefon raqami bilan bog'liq majburiyatni kamaytiradi: biometrik passport va selfie orqali identifikatsiya qilish imkonini yaratish (Freja eID misolida) Davlat xizmatlari platformasiga "rezident emas, ammo davlat xizmati foydalanuvchisi" toifasini qo'shish - chet eldagi O'zbek fuqarolari uchun alohida variant Konsullik yoki elchixona orqali elektron identifikatsiya jarayonini olib borish - chet elda telefon raqamisiz bo'lganlar uchun Telefon raqami majburiy bo'lmasa yoki alternativ identifikatsiya metodi sifatida belgilanganda muammolar kamroq bo'ladi.

Bu kabi takliflarning hammasi qonunchilik bilan tartibga solinishi shart. Qonunlar har qanday muammoni tizimli yechishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, elektron hukumat tizimini me'yoriy-huquqiy jihatdan ta'minlash O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. So'nggi yillarda mamlakatimizda elektron hukumat sohasini tartibga soluvchi bir qator qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilinib, ularning amaliy natijalari davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Xususan, "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonun (2022-yil), "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun hamda "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi elektron davlat boshqaruvi tizimini huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi. Ushbu hujjatlar asosida davlat organlari faoliyatini avtomatlashtirish, fuqarolarga tezkor, shaffof va qulay xizmat ko'rsatish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, elektron hukumatni joriy etish jarayonida ayrim tizimli muammolar ham mavjud: qonunchilik bazasining ayrim normalari zamonaviy texnologiyalar rivojiga to'liq mos emas; axborot xavfsizligi masalalari dolzarbligicha qolmoqda; ayrim hududlarda texnik infratuzilma va raqamli savodxonlik yetarli darajada emas. Kelgusida

ushbu muammolarni bartaraf etish uchun elektron hukumatning huquqiy asoslarini muntazam ravishda takomillashtirib borish, xalqaro tajribalarni o'rganish, davlat xizmatchilari va fuqarolar o'rtasida raqamli madaniyatni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, elektron hukumat tizimi O'zbekistonda ochiq, samarali va fuqarolarga yo'naltirilgan davlat boshqaruvini shakllantirishga xizmat qilmoqda. U nafaqat texnik, balki huquqiy va ijtimoiy islohotlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida, mamlakatning raqamli rivojlanish strategiyasida markaziy o'rinni egallaydi. Shunday ekan, elektron hukumatni me'yoriy-huquqiy jihatdan yanada mustahkamlash – yangi davr davlat boshqaruvining poydevorini yanada kuchaytiruvchi ustuvor vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonun. 2015-yil 9-dekabr, O'RQ-395-son.
3. "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun. Qabul qilingan 2003-yil 11-dekabr, O'RQ-560-son.
4. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 2-iyul, O'RQ-547-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. PF-6079-son, 2020-yil 5-oktabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat xizmatlarini elektron shaklda ko'rsatish qamrovi yanada kengaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Qarori. 553-son, 2024-yil 9-sentabr.
7. BMT E-Government Development Index 2024 Report. United Nations Department of Economic and Social Affairs (UNDESA). – New York, 2024.
8. Xolboev, S. (2023). Elektron hukumatni rivojlantirishning huquqiy asoslari. – "Huquq va Davlat" jurnali.
9. Qosimov, A. (2022). Raqamli boshqaruvda elektron hukumatning o'rni va istiqbollari. – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy maqolalar to'plami.
10. Jo'rayev, D. (2021). O'zbekistonda elektron hukumatni joriy etishning tashkiliy-huquqiy masalalari. – "Iqtisod va huquq" jurnali.
11. Kim, S. (2020). E-Government in Korea: Achievements and Challenges. – Seoul National University Press.
12. [Tadqiqot.uz](https://tadqiqot.uz) – O'zbekistonda raqamli boshqaruv va elektron hukumat loyihalari haqida tahliliy materiallar.
13. my.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
14. data.gov.uz – Ochiq ma'lumotlar portali.
15. egov.uz – Elektron hukumat loyihalarini muvofiqlashtirish markazi rasmiy sayti.